

MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Abduqodirova Fotima

Kosonsoy tuman 1-son politexnikumi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mustaqillikning qo'lga kiritilishi ko'plab voqea va hodisalarni adolat va haqiqat tamoyili asosida o'rganish hamda tadqiq etish imkonini berdi. Tarix haqiqati asosida o'tmishimizga, milliy qadriyatlarimizga yangicha qarash, xolisona yondoshuv asosida baho berish ham shular jumlasidandir. Ushbu metodik tavsiyada bugungi kunda maktablarda tarix fanini o'qitish jarayoni va ushbu jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy o'yin metodlaridan foydalanish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Tarix, maktab, o'yin metodlari, pedagogik texnologiyalar, o'quvchi, pedagog.*

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmfani, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, milliy pedagogika va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning naza-riy va metodik asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati milliy ta'lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga olib chiqish, ta'lim bozorini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi milliy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi bu tub vazifalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, «hamkorlik pedagogikasi» texnologiyasini qabul qilishimiz yuqori samara beradi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilanib bormoqda.

Ma'lumki, hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rniga haqqoniy baho berish vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'naviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bugungi kunda maktab ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi tarix fanini o'qitish jarayonida ham

zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiribgina qolmay o'qituvchi uchun ham o'quvchilar bilan ishashda birmuncha qulayliklar yaratadi. Xususan tarix darslarida ham ilg'or pedagogik texnologiyalarning bir nechta turlaridan foydalanish mumkin.

Bizga ma'lumki tarix juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi 'Ko'zgu' desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, milliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy dunyoda yangiturfa hil tendensiyalar shakillangan bo'lib, bizdan bu bilimlarni Pedagog sifatida tahlil qilish va yangi Innovatsiyalar olib kirish talab qilinadi. «Innovatsiya» so'zining kelib chiqishi lotinchadan «Novatio» «yangilash», «o'zgartirish» degan ma'noni anglatadi va «in» «yo'nalishda» deb tarjima qilingan. So'zma-so'z «innovatio» - «o'zgarish yo'nalishida». Bundan tashqari, bu shunchaki har qanday yangilik emas, balki uni qo'llashdan keyin faoliyat samaradorligi va sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Sobiq sovet davrida tarixdan mafkura sifatida foydalanilgan bo'lib, u shunchaki o'tmishning juda jo'n lavhasiga aylanib qolgan. Ya'nikim, tarix shunchaki yillar, joy nomlari, voqealar va shaxslardan iborat ma'lumot omboriga o'xshatilgan mexanik tarzda yondoshilgan va tarixiy tahlil atayin, mafkura tufayli chetlab o'tilgan. Xo'sh, aslida bizga tarixiy tahlil nega kerak va biz buni qanday amalga oshira olamiz? Tarixiy tahlil o'quvchida tarixiy jarayonlarga holis qarash, ushbu jarayonlarni shakillantirgan omillarni o'rganish va ushbu bilimlarni hayotda qo'llash hamda muammolarga yechim sifatida taklif qilaolish qobiliyatini shakillantiradi.

Dars jarayonida o'qituvchining ijodkorligidan kelib chiqib turli mavzularni tushuntirishda o'ziga xos ta'lim metodlarini yaratish mumkin. Birgina xaritani misol qilib olsak, o'qituvchi turli davrlarda mavjud bo'lgan davlatlarning va ulardagi daryolar, tog'lar, shaharlar, inshootlar kabilarni xaritalar bilan bog'lagan xolda tushuntirishi o'quvchilar uchun ham qiziq bo'ladi. Qolaversa, yuqorida nomlari ko'rsatilgan eng ommalashgan ta'lim metodlariga ham ijodiy yondashgan holda samarali dars tashkil etish mumkin.

Quyida men barcha uchun kerakli bo'lgan hamda zamoanaviy ta'lim metodlarini ayrimlari haqida to'xtalib o'taman.

“HAQIQATMI YOKI YOLG'ON” metodi

Bu metodda o'quvchilarga tarixiy voqea yoki shaxsga oid ma'lumotlar bilan ishlashga yordam beradi. O'quvchilarni buning uchun grux shakliga keltirib olsangiz qiziqarli bo'ladi. Aslida uni yakka tartibda o'tkizsangiz ham bo'ladi.

O'quvchilarga oldindan tayyorlab kelgan ma'lumotlaringizni aytasiz hamda ular esa o'z ddaftariga quyidagidek jadval chizib olishadi.

Tayyorlab kelgan ma'lumotingizni o'qiysizz o'quvchilar bu ma'lumotlarning haqiqat yoki yolg'on ekanligini aniqlaydilar. Buni Amir Temur shaxsiga oid ma'lumotlar misolida qo'llasak, quyidagicha bo'ladi:

T/r	XAQIQAT	YOLG'ON
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		

O'quvchilarga ma'lumotni o'qib qisqa vaqtda uni jadvalga javobini yozishlarini aytasiz. Ular javobini raqib jamoaga bildirmay belgilashlari kerak.

Bunda, masalan, quyidagi ma'lumotlardan foydalansak bo'ladi:

1. Amir Temur 1370-yil Movaraunnahr taxtiga o'tirgan.
 2. 1381-yili Hirot, Seyiston, Mozandaron, Saraxs, Sabza-vor bo'ysundiriladi.
 3. Amir Temur va Boyazid jangida Boyazid g'alaba qozongan.
 4. "Loy jangi" Toshkent va Chinoz oralig'ida bo'lib o'tgan.
 5. 1372—1388 yillar davomida Amir Temur Xorazmga besh mana yurish qiladi
 6. Amir Temurning Boyazid ustidan g'alabasi uni "Yevropa halaskori" ga aylantirdi.
- Hamda hokazalar bo'lishi mumkin.

"Teskari test" metodi

Kerakli jihozlar. Xar bir o'quvchiga tarqatish uchun Kalitlar ya'ni



Xar bir o'quvchi qo'liga shunday kalit topshirasiz.

Bu metod o'z nomi bilan aytilganidek, teskari test yechish. Testning javob variantlari avval ekranli doskada namoyish etiladi. Undan so'ng o'qituvchi tomonidan bu testning savoli o'qib eshittiriladi. O'quvchilar qo'llariga javob variantlardagi harflar yozilgan kartochkalar tarqatilgan bo'lib, qaysi javob varianti berilgan savolga mos kelsa, o'sha kartochkani ko'taradilar.

Misol uchun,

- A) Mirzo Ulug'bek
- B) Z. M. Bobur
- D) A. Temur
- E) J. Manguberdi

Endi esa savolni o'qiyman: "Hindistonga borib ulkan sulolaga asos solgan Temuriy hukmdor keltirgan javobni toping?"

(O'quvchilar oldilaridagi kartochkalardan B harfi yozilganini baland ko'taradilar)

Bundan ko'zlangan maqsad esa bir xillikdan qochish hamda ta'lim jarayonlariga har tomonlama yangicha yondashishdir.

Hozirgi zamon yoshlarining ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiyijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfyotlarga qiziqishi, ta'lim mazmuniga talabchanligi o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishiga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda pedagogikaga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi pedagogik, psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib, qo'llanib borilishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xullas, pedagogik texnologiya o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchi yoki talabalarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmi o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya - o'z navbatida ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sadiev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi.T., 1988, 138-146 betlar.
2. Sadiev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.T., 1993., 126-130 betlar
3. 1 Lerner I.Ya. O'qitish metodlarining didaktik asoslari.M.,19i1
4. "afforov Ya.X., "afforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T.,1996
5. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). - T.: "Fan" nashriyoti, 2006y.
6. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
7. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008